

O`QUVCHILARDA IQTIDORINING SHAKLLARI VA LAYOQATNING NAMOYON BO`LISHIDA PSIXOLOGNING VAZIFALARI

Jumanov Odiljon Abduğani o‘g‘li

Sirdaryo viloyati Guliston tumani 22-umumiy o‘rta ta’lim maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o`quvchilar layoqatini shakllantirib, uni qobiliyat va iqtidorga aylantirishda maktab hamda oilaning o‘zaro hamkorligi, bolaning ijodiy qobiliyatlarini haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so’zlar: layoqat, iste’dod, fiziologiya, tirishqoqlik, kreativlik, kommunikativlik, autopsixologik qobiliyatlar, kompetentlilik.

O’zbekistonda o`quvchi ta’lim va tarbiyasining asosiy prinsiplarida alohida ta’kidlangan quyidagi talablar: “har bir bolaning iste’dodi nishonalarini, ishtiyоqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi” ta’minlanadi. Shunga ko’ra, boladagi qobiliyatni yuzaga chuqaruvchi kuch - layoqatga alohida e’tibor shartdir. **Layoqat** – asab tizimining ba’zi genetik determinlashgan anatom-fiziologik xususiyati bo‘lib, bu kishida qobiliyatlar tarkib topishi va rivojlanishining dastlabki yakka tug‘ma tabiiy zaminidir. Ilgari jamiyatda odamlar ijodini rivojlantirishga alohida ehtiyoj sezilmagan. Iste’dodlar o‘z-o‘zidan namoyon bo‘lgan, adabiyot va san‘at durdonalari, ilmiy kashfiyotlar, ixtiolar yaratilgan va shu orqali rivojlanayotgan insoniyat madaniyati ehtiyojlarini qondirgan. Bizning davrimizda vaziyat tubdan o‘zgardi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida hayot tobora rang -barang va murakkablashib bormoqda. Va u odamdan odatiy harakatlarni emas, balki harakatchanlikni, fikrlashning moslashuvchanligini, tez yo‘naltirishni va yangi sharoitlarga moslashishni, katta va kichik muammolarni hal qilishga ijodiy yondashishni talab qiladi.

Zamonaviy dunyoda inson ijodkorligi uning aql-zakovatining eng muhim qismi sifatida tan olinishi kerak. Insoniyat tomonidan to’plangan madaniy qadriyatlar odamlarning ijodiy faoliyati natijasidir. Kishilik jamiyatining kelgusida qay darajada oldinga borishini yosh avlodning ijodiy salohiyati belgilab beradi. Psixologik nuqtai nazardan, boshlang`ich maktab davri ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qulay davr hisoblanadi, chunki bu yoshd a o`quvchilar juda izlanuvchan, ularda atrofdagi dunyonni o’rganishga intilish katta. “Bu yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o’zgarishlari bo’ladi. Bola rivojlanish jarayonida o’z ajdodlari tomonidan yaratilgan ijtimoiy tajribani o’zlashtiradi, atrofmuhitdagi narsalar va hodisalar bilan muloqotga kirishadi”.

Fiziologiya va psixologiya fanlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalarining ko‘rsatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki bir qobiliyatning

ro‘yobga chiqishi va rivojlanishi uchun manba bo‘lgan layoqat bilan tug‘iladi. Layoqat go‘yo “mudroq” holatda bo‘lib, uning “uyg‘onishi” – rivojlanishi uchun qulay muhit yaratishni talab qiladi. Shu bilan bиргаликда, layoqatning “uyg‘onishi” uchun ham ota-onalar hamda o‘qituvchining ishtiroki ham alohida o‘rin kasb etadi. Ota-onalar va o‘qituvchilar qiziquvchanlikni rag‘batlantirish, ularga bilim berish, turli mashg‘ulotlarga jalb etish orqali o‘quvchilar tajribasini kengaytirishga hissa qo‘sadilar. Tajriba va bilimlarni toplash kelajakdagi ijodiy faoliyat uchun zaruriy shartdir. Bundan tashqari, boshlang`ich maktab yoshdagi o‘quvchilarning fikrlashlari yuqori sinf o‘qubchilarnikiga qaraganda ancha erkindir. Iqtidorning o‘z vaqtida namoyon bo‘lishi, tarbiyaga va qo‘llab -quvvatlashga bog‘liqdir.

Har qanday jamiyatga iqtidorli shaxslar zarur. Shu nuqtai nazardan layoqatli o‘quvchilarni aniqlash, tarbiyalash va o‘qitish respublikaning bo‘lajak aql - zakovatli va ijodiy fikrlovchi kuchlarni tayyorlashning yagona manbaidir. Ijodi y qobiliyatlar rivojini samarali amalga oshirish uchun o‘quvchi layoqatini aniq tahlil etish, o‘quvchilarning o‘ziga xos psixologik jihatlarini va fazilatlarini hisobga olish zarur. Turli yoshdagi layoqatli o‘quvchilarni namoyon etishda hozirgi kunda, avvalo maktab tashkiloti pedagogika jamoasi ruhiy-diagnostika tajribalardan unumli foydalanishlari zarur. O‘quvchilar layoqatining namoyon bo‘lishiga qobiliyatlarni aniq tahlil etish, uning o‘ziga xos fazilatlarini hisobga olish ijodiy qobiliyatlar rivojini samarali amalga oshirish uchun zarur. Vaholanki, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini erta aniqlash va rivojlantirish zamonaviy ta’limning asosiy vazifasidir. Ijodiy qobiliyat va iqtidorga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu har xil turdagи ijodiy faoliyatning muvaffaqiyatini belgilaydigan shaxsning individual fazilatlari hisoblanadi.

Mashhur psixolog O.M. Dyachenkoning yozishicha, qobiliyat inson uchun doimiy ahamiyatga ega, ular uning turli faoliyatdagи muvaffaqiyatini ta‘minlaydi va kerakli bilim, ko‘nikma va malakalarni tezda egallashga yordam beradi. Bu qibiliyatlarni rivojlantirishning yuqori darjasи bolaga deyarli har qanday yangi vazifani tezda boshqarishga, uning shartlarini aniq ko‘rishga, munosabatlarni tushunishning muhim jihatlarini ta‘kidlashga, sharoitlarni qayta qurish orqali yechimlarni topishga, yangi ijodiy mahsulotlar uchun g‘oyalarni yaratishga, ifoda etishiga imkon beradi. Layoqat bilan qobiliyatni va iqtidorni bir-biridan farqlay olish lozim. Layoqat bu insonning faoliyatga bo‘lgan intilishi, qobiliyat esa ushbu faoliyatni bajara olish imkonidir. Tabiiy anatomik-fiziologik layoqat nishonalari qobiliyatlarning asosini tashkil qiladi. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalarining majmui – iste’dod deyiladi. Qobiliyatlarning noyob kombinatsiyasi va rivojlanish darjasи ikki omil bilan belgilanadi: moyillik va atrof-muhit ta’siri. Atrof-muhit – bu kengroq tushuncha. U biz yashayotgan barcha shart-sharoitlarni o‘z ichiga oladi: madaniyat, jamiyat, ekologiya, ta’lim, oila va boshq alar.

Turli yo‘nalishdagi olimlar, psixologlar, o‘qituvchilar, sotsiologlar va boshqalar bolaning qobiliyatini rivojlantirishni belgilab beruvchi asosiy ekologik omillardan biri bu oila ekanligiga qo’shiladilar. Oila an’anaviy ravishda asosiy ta’lim muassasasi hisoblanadi. Oilaning tarbiya instituti sifatidagi ahamiyati shundan iboratki, bola hayotining muhim qismi oila davrasida o’tadi. Maktab o`quvchilari layoqatining shakllanib borishi natijasida qobiliyatga aylanishi uchun faqatgina maktablar emas, shu bilan birgalikda ota-onalarni ham birdek ma’suldirlar. Chunki mактабдаги о‘qитувчи, pedagoglar tomonidan o`quvchi layoqati shakllanishi ustida pedagogik ishlar amalga oshirilsa -yu, ammo bola oila davrasida bo‘lganida ota-onalarni tomonidan bolaning qanday layoqat u nda shakllanayotganiga e’tibor qaratilmasa, u holda boladagi layoqat so‘nadi. Shu sababli ham mактаб hamda oila o‘rtasida hamkorlik olib borilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Asambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan quyidagi so‘zlarni keltirib o‘tamiz: “Sayyoramizning ertangi kuni, farvonligi farzandlarimizqanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z saloiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish...dir”(4 -252). Darhaqiqat, “Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb -hunarlarni chuqur egallagan, mustahkam hayotiy pozitsi yaga ega, chinakam vatanfarvarinsonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala hisoblanadi”. Shu sababli ham davlatimiz tomonidan barcha sohalar singari maktabgacha ta’lim tizimiga ham katta va jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Har qanday davlatning jadal tarzda rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga bog‘liq. Shu ma’noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining ust uvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Iqtidorli o`quvchilar bu umumiy va maxsus qobiliyatlarni o‘zida mujassam etib, quyidagi belgilari bilan alohida ajralib turadilar: qiziquvchanligi, doimo turli savollarga javob izlashlari, nutqi, tafakkuri, xotirasini tez rivojlanishi, erta yoshdayoq musiqa, rasm chizish, kitob o`qish, matematikaga qiziqishi, yuqori darajadagi bilish faoliyiti va o`quv faoliyati, masalalarining yechimini topishda maqsadga intiluvchanlik va orginallilik, tafakkurning unumdoorigi. Ta’limni axborotlashtirish jadallik bilan amalga oshirilayotganligi va inson kapitalining rivoji iqtidorlikni triada(uchlik) – intelektual qobiliyatlar, tirishqoqlik, kreativlik deb emas oltilik – intelektual qobiliyatlar, tirishqoqlik, kreativlik, kommunikativlik, autopsixologik qobiliyatlar, kompetentlilik tarzida qarashni taqazo etadi.

Adabiyotlar:

1. Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining qonuni. - Toshkent. sh.,2019-yil

2. Tarbiya. Ensiklopediya. -Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediya Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 -jild. -Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediya Davlat ilmiy nashriyoti, 2006
4. Baratov Sh. O`quvchi shaxsini o`rganish usullari. T.-1995 yil
5. G`oziyev Ye. va boshq. Psixologiya muammolari. T.-O`qituvchi, 1996 yil